

## INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Sattarova Irodaxon Muradaliyevna**

*ADPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni, uning ijtimoiy ahamiyati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar tahlil qilingan. Tadqiqot muammo yechimlari sifatida infratuzilmani modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish, oila va maktab hamkorligini rivojlantirish hamda metodik ta'minotni takomillashtirishning zarurligi ko'rsatib o'tilgan.*

**Annotation:** *This article analyzes the process of introducing inclusive education in the education system of Uzbekistan, its social significance, existing problems, and proposals and recommendations for their elimination. The study indicates the need to modernize infrastructure, improve the skills of teachers, develop family-school cooperation, and improve methodological support as solutions to the problems.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется процесс внедрения инклюзивного образования в систему образования Узбекистана, его социальное значение, существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по их устранению. Исследование указывает на необходимость модернизации инфраструктуры, повышения квалификации учителей, развития сотрудничества между семьей и школой, а также совершенствования методической поддержки как способов решения проблем.*

Respublikamizda alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'lim barcha bolalarni ehtiyojini hisobga olgan holda eng insonparvar ta'lim sifatida ular uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni hamda "Alohida ta'lim ehtiyojiga munosib ko'rilgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4860-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni dolzarb masalalari muammo va ularni yechimlari haqida qayg'urish har bir pedagogning vazifasi ekanligini yaxshi bilamiz.

2020-yil 19-mayda Oliy Majlisda muhokama qilingan va yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasiga ilk bor inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi, ya'ni barcha uchun sifatli, teng imkoniyatli va maxsus ehtiyojli shaxslarni qamrab oluvchi ta'lim tamoyillari kiritilishi taklif qilingan va bu qonun loyihasi muhokamada asosiy masala bo'lgan. Bu yangi qonun barcha ta'lim muassasalarida, davlat yoki xususiyidan qat'i nazar, inklyuziv shart-sharoitlar yaratish majburiyatini yuklaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri — hamma bolalar, jumladan, jismoniy, aqliy, sensor yoki psixologik rivojlanishida cheklovlari bo'lgan bolalar uchun sifatli ta'lim va tarbiyani ta'minlashdir. Inklyuziv ta'lim modeli shaxsning imkoniyatidan qat'i nazar, uni ijtimoiy hayotga to'liq integratsiya qilish, mustaqil yashash va kasbiy rivojlanishiga zamin yaratadi ya'ni, inklyuziv ta'lim — barcha bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi xususiyatlardan qat'i nazar, ularga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan tizimdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, ammo tizimni to'liq samarali yo'lga qo'yish hali ham bir qator muammolarni hal etishni talab qiladi.

Shu bilan birga inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Biroq amaliyotda mazkur tizimni to'liq yo'lga qo'yishda turli tashkiliy, metodik va psixologik to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu tadqiqot mazkur muammolarni ilmiy asosda o'rganish va samarali yechimlarni taklif etishga qaratilgan.

Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash metodi, kuzatuv va suhbat, diagnostik yondashuv kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlilda inklyuziv ta'limga doir xalqaro va milliy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Taqqoslash metodida rivojlangan davlatlardagi inklyuziv ta'lim tajribasi bilan mahalliy tajribalar solishtirildi. Kuzatuv va suhbat metodida esa umumta'lim maktablari o'qituvchilari, psixologlar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Diagnostik yondashuvda maxsus ehtiyojli o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki, mavjud sharoitlar va to'siqlar baholandi.

Xozirgi kunda inklyuziv ta'limni joriy etishda metodik ta'minotning cheklanganligi juda ko'p noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bular:

- Infratuzilma yetishmovchiligi ya'ni, juda ko'p maktablarda panduslar, liftlar, maxsus sanitariya xonalari mavjud emas, sinf xonalari esa nogironligi bo'lgan bolalar ehtiyojlariga moslashtirilmagan;

- O'qituvchilarning tayyorgarligi yetarli emas ya'ni, maxsus pedagogika, defektologiya va psixologiya bo'yicha yetarli malaka oshirish dasturlari yo'q, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha tajriba kam;

- Ota-onalar bilan ishlashda bo'shliqlar, ko'pchilik ota-onalarda inklyuziv ta'lim mohiyati to'g'risida yetarli tushuncha mavjud emas, farzandining imkoniyatlariga nisbatan pessimist munosabat uchraydi;

- Metodik ta'minotning cheklanganligi, maxsus o'quv materiallari, texnik vositalar yetishmaydi, raqamli resurslar soni juda kamligini ko'rsatdi.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun mavjud muammolarni tizimli yondashuv asosida hal qilish zarur va bunga eng optimal variantdagi yechim kerak bo'ladi:

- Infratuzilmani modernizatsiya qilish ya'ni, maktab binolarini universal dizayn talablari asosida rekonstruksiya qilish, maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan jihozlar bilan ta'minlash.

- Pedagoglar malakasini oshirish ya'ni, inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish, defektolog, logoped, psixolog shtatlarini kengaytirish.

- Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ya'ni, psixologik maslahatlar, seminar-treninglar o'tkazish, oilaviy muhitda bolani qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

- Zamonaviy metodik vositalarni joriy etish ya'ni, individual ta'lim dasturlari (ITD) bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash, adaptiv texnologiyalar (Braille displeylari, eshitish apparatlari, maxsus kompyuter dasturlari)ni joriy etish.

- Jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish ya'ni, ommaviy axborot vositalarida inklyuziv ta'limga oid targ'ibot ishlari, ijtimoiy loyihalar orqali nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni mustahkamlash.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim — har bir bola uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan strategik yo'nalish bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish har bir bolaning jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun muhim omildir. Muammolar ko'p bo'lishiga qaramay, ularni hal etish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlar mavjud va tizimli yondashuv orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin. Infratuzilmani yaxshilash, malakali kadrlar tayyorlash, metodik ta'minotni kuchaytirish va ota-onalar bilan hamkorlik inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. UNESCO. Inclusive Education: Global Report. Paris: UNESCO Publishing. 2020 y.
2. Florian, L. Inclusive Pedagogy and Special Educational Needs. Cambridge University Press. 2015 y.
3. Slee, R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. Routledge. 2011 y.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni (yangi tahrir).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish to'g'risida" qarorlari va konsepsiyalari.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha metodik qo'llanma. 2021 y.
7. Сатарова, И. М. (2025). МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОРАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. Экономика и социум, (1-2 (128)), 818-821.
8. Komilova, D. A. (2025). BOLALARNING TIL QOBILIYATINI ONTOLINGVISTIK NUQTAYI NAZARDAN RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Экономика и социум, (11-1 (138)), 283-287.
9. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Zamonaviy ilm-fan va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. Science and Education, 2(12), 609-616.